


## 2020- yil yanvar-iyun oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyatida jami **2464,0** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **100,2 %** ni tashkil etdi.




### 2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo`linadi.



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3047 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 437 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **117,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **55,7 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **114,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **11,3 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin **116,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **33,0 %**) o'sishidir.




**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.07.2019- yil	01.07.2020- yil	
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2610</b>	<b>3047</b>	<b>116,7</b>
<b>shaharlar:</b>			
Farg'ona sh	695	809	116,4
Qo'qon sh	273	315	115,4
Quvasoy sh	91	108	118,7
Marg'ilon sh	250	305	122,0
<b>tumanlar:</b>			
Oltiariq	84	96	114,3
Qo'shtepa	90	97	107,8
Bag'dod	138	162	117,4
Buvayda	107	121	113,1
Beshariq	68	78	114,7
Quva	121	134	110,7
Uchko'prik	144	162	112,5
Rishton	61	67	109,8
So'x	28	38	135,7
Toshloq	111	128	115,3
O'zbekiston	65	78	120,0
Farg'ona t	63	91	144,4
Dang'ara	109	122	111,9
Furqat	56	68	121,4
Yozyovon	56	68	121,4



**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni  
01.07.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi % da)**




**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona sh. (26,6 %), Qo'qon shahar (10,3 %) va Marg'ilon (10,0 %) shahrlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **230,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **90,7 %** ga kamaygan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **0,9 %** punktga kamayib, **9,4 %** ni tashkil etdi.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'qon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **24,6 %** i yoki 2019 - yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **58,7 %**), Quvasoy (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **29,8 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **5,6 marta ko'p**), va Yozyovon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **31,7 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **38,1 %** ) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2019- yil yanvar-iyun
- 2020- yil yanvar-iyun


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **68,4** % i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan **4,1** % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **106,6** % ni tashkil etgan holda **1 684,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **22,3** % ni tashkil etdi yoki **548,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **87,9** % ni tashkil etdi.



### Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektoring ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **86,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,5 %** ni tashkil etdi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **2377,1** mlrd. so'm ishlar bajarilib, jami qurilish ishlari hajmining **96,5 %** ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2020- yil yanvar-iyun

Farg'ona viloyatida qurilish ishlari



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-iyun

58,2 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 58,2 % i yoki **1434,8** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

10,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **143,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 10,0 % ni tashkil etdi.

56,5 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **810,8** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 56,5 % ni tashkil etdi.

33,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **480,4** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 33,5 % ni tashkil etdi.



**FARG'ONA VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-iyun oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2464,0</b>	<b>100,2</b>	<b>1434,8</b>
<b><i>Shaharlari:</i></b>			
Farg'ona	688,2	127,2	8,5
Qo'qon	189,5	92,5	13,7
Quvasoy	120,6	50,1	
Marg'ilon	342,3	154,0	64,0
<b><i>tumanlar:</i></b>			
Oltiariq	112,5	118,1	
Qo'shtepa	104,6	101,0	
Bag'dod	153,2	161,0	2,5
Buvayda	56,6	100,8	
Beshariq	41,9	40,5	6,9
Quva	123,3	100,7	
Uchko'priq	51,2	56,5	
Rishton	21,8	44,4	
So'x	44,8	145,0	
Toshloq	50,3	104,6	
O'zbekiston	60,1	116,3	
Farg'ona	47,9	97,8	
Dang'ara	122,2	71,7	6,2
Furqat	73,2	104,6	
Yozyovon	59,9	52,7	

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

1333,0



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,% da

2019- yil yanvar-iyun

11,5



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

12,2



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

76,3



Binolar va inshootlarni  
qurish

10,2



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

11,5



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

78,3



Binolar va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,6 %** ni tashkil etib, 2019 - yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,1 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019 - yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,9 %** punktga ko'payib, **66,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019 - yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **7,0 %** punktga kamayib, **28,4 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **28,6** % ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **4,4** % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **71,1** % (**10,1** % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,3** % (**5,7** % punktga kamayish) ni tashkil etdi.



2020- yil  
yanvar-iyun


Farg'ona viloyatida qurilish ishlari



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **12,3** % punktga kamaydi va **16,3** % ni tashkil etdi. Qolgan **83,7** % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **12,3** % punktga ko`paydi.



2020- yil  
yanvar-iyun

Farg'ona viloyatida qurilish ishlari



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-iyun oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Farg'ona sh.  
688,2

1

2

Marg'ilon sh.  
342,3

Qo'qon sh.  
189,5

3



### Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Rishton t.  
21,8

1

2

So'x t.  
44,8

Beshariq t.  
41,9

3





## FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'lumi**

**Aloqa telefoni: (73) 249-87-26**

**2020- yil  
yanvar-iyun**

**Farg'ona viloyatida qurilish ishlari**